TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ART-PEDAGOGIKANING O‘RNI VA ROLI

Tuychiyeva Dilnavoz Qobiljon qizi, Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

e-mail: tuychiyevadilnavoz005@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya darslarini tashkil etish jarayonida art-pedagogik yondashuvdan foydalanishning nazariy-metodik asoslari hamda uning tarbiyaviy samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotlarda zamonaviy ta’lim tizimida tarbiya mashg‘ulotlarining mazmunini boyitish, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv san’at metodlarining ahamiyati tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va qiyosiy tahlil asosida art-pedagogikaning tarbiya jarayonidagi imkoniyatlari aniqlangan. Maqolada rasm chizish, kollaj tuzish, darmatizatsiya, musiqiy elementlardan foydalanish kabi art-pedagogik usullar tarbiya darslarida o‘quvchilarning emotsional faolligini oshirish, axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirish hamda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatda asoslab berilgan. Shuningdek, art-pedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan tarbiya mashg‘ulotlarining pedagogik samaradorligini ochib berib, ushbu metodlardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: art-pedagogika, axloqiy tarbiya, emotsional rivojlanish, interaktiv pedagogik usullar, ijtimoiy kompetensiyalar, ijodiy faoliyat, pedagogik samaradorlik, shaxs kamoloti, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tarbiya darslari.

РОЛЬ И МЕСТО ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УРОКОВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации уроков «Тарбия» (нравственного воспитания) с использованием интерактивных арт-педагогических методов. Особое внимание уделяется внедрению творческих подходов, таких как изобразительное искусство, музыка, драматизация и сторителлинг, в образовательный процесс. Эти методы способствуют повышению интереса учащихся, развитию их критического мышления и эмоционального интеллекта. Интерактивные арт-технологии создают условия для активного участия учащихся и формируют обучающую среду, ориентированную на личность. В статье анализируются различные педагогические стратегии, включая групповую работу, ролевые игры и проектное обучение, которые способствуют формированию нравственных

качеств, социальных навыков и ключевых компетенций. Также подчеркивается роль учителя как фасилитатора, направляющего творческую деятельность учащихся и поддерживающего их самостоятельное мышление. Результаты исследования показывают, что применение интерактивных арт-педагогических методов значительно повышает эффективность уроков «Т арбия» и способствует всестороннему развитию личности учащихся.

Ключевые слова: интерактивное искусство, арт-педагогика, уроки тарбия, творческие методы, активность учащихся, нравственное воспитание, педагогические стратегии, критическое мышление, совместное обучение, развитие личности

THE ROLE AND PLACE OF ART PEDAGOGY IN ORGANIZING EDUCATIONAL LESSONS

Abstract: This article explores the effective organization of “Tarbiya” (moral and character education) lessons through the use of interactive art-based pedagogical methods. The study highlights the importance of integrating creative approaches such as visual arts, music, drama, and storytelling into the educational process to enhance students’ engagement, critical thinking, and emotional development. Interactive art methods not only stimulate learners’ interest but also create a collaborative and student-centered learning environment. The paper analyzes various teaching strategies, including group work, role-playing, and project-based learning, which contribute to the formation of moral values, social skills, and personal competencies. Furthermore, the research emphasizes the role of the teacher as a facilitator who guides students in expressing their ideas creatively while fostering independent thinking. The findings suggest that the application of interactive art pedagogical techniques significantly improves the effectiveness of Tarbiya lessons and supports the holistic development of students.

Keywords: interactive art, pedagogy, Tarbiya lessons, creative methods, student engagement, moral education, teaching strategies, critical thinking, collaborative learning, personal development

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida tarbiya darslarining mazmunini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisolanadi. Globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi hamda ijtimoiy munosobatlarning murakkablashuvi sharoitida o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki axloqiy, estetik va ijtimoiy kopetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois tarbiya jarayonida an’anaviy yondashuvlar bilan qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Pedagogika fanida bunday innovatsion yondashuvlardan biri sifatida art-pedagogika alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, san’at vositalari orqali tashkil etilgan pedagogik jarayon shaxsning ichki hissiy kechinmalariga bevosita ta’sir ko‘rsatib, tarbiyaviy ta’sir samaradorligini oshiradi. Jumladan, M.Abdullayeva ta’kidlaganidek, “Tarbiya jarayonida san’at elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning shaxsiy munosobatlarini faollashtiradi va uning axloqiy

qadriyatlarini ongli qabul qilishga yordam beradi”.[1, 156-b] Ushbu fikr art-pedagogikaning tarbiya darslaridagi muhim o‘rinni ilmiy jihatdan asoslab beradi. Art-pedagogikaning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari masalasi xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, R.Ishmuhammedov “Art-pedagogik metodlarni shaxsga yo’naltirilgan ta’limning muhim komponenti sifatida baholab, ularni tarbiyaviy jarayonga joriy etish o‘quvchilarning ijodiy va emotsional rivojlanishini ta’minlashini “.[2, 184-b] ta’kidlaydi. Olimlarning fikricha, rasm chizish, dramatizatsiya, musiqiy mashg‘ulotlar va kollaj kabi usullar tarbiya darslarida o‘quvchilarning faol ishtirokini kuchaytiradi. Shuningdek, A.Qodirovning tadqiqotlarida interaktiv metodlarning tarbiya jarayonidagi ahamiyati alohida qayt etilib, art-pedagogik yondashuv o‘quvchilarda ijtimoiy faollik va muloqot madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko‘rsatilgan. Muallifning ta’dlashicha, “Tarbiya darslarida ijodiy muhit yaratish o’quvchilarning axloqiy normalarini shunchaki qabul qilishi emas, balki ularni shaxsiy hayotiy pozitsiyaga aylantirishga hizmat qiladi” .[3, 176-b]

Xorijiy ilmiy manbalarda ham art-pedagogika shaxsning emotsional va ijtimoiy rivojlanish bilan bog‘liq holada talqin etiladi. Tadqiqotchilar san’at orqali tashkil etilgan pedagogik jarayon o‘quvchilarda empatiya, o‘zini anlash va ijtimoiy moslashuv ko’nikmalarini rivojlantirishni ta’kidlaydilar. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyatida art-pedagogik yondashuv ko‘proq terapevtlik yoki psixologik nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, uni aynan tarbiya darslarini tashkil etish tizimiga moslashtirish masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Shunday qilib, adabiyotrlar tahlili shuni ko’rsatadiki, art-pedagogika ta’lim tarbiya jarayonida katta imkoniyatlarga ega bo’lsa-da, uning tarbiya darslarini tashkil etishdagi o‘rni va rolini tizimli ravishda o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida art-pedagogik usullardan foydalanishning metodik asoslari va ularning tarbiyaviy samaradorligini aniqlash dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqot ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tarbiya darslarini tashkil etishda art-pedagogik yondashunlarning o‘rni va rolini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda pedagogik tadqiqotlarda xos bo‘lgan nazariy va amaliy metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot metodalogiyasi tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan hamda kopetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida pedagogika va psixologiya fanlarida tarbiya jarayoni, interaktiv ta’lim metodlari hamda art-pedagogika masalalariga oid ilg‘or ilmiy qarashlar olindi. Ushbu yo‘nalishda chop etilgan mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyatlar tahlil qilinib, art-pedagogikaning tarbiyaviy jarayonidagi imkoniyatlari umumlashtirildi. Nazariy tahlil orqali tarbiya darslarida art-pedagogik usullardan foydalanishning pedagogik usullardan foydalanishning pedagogik mohiyati va metodik xususiyatlari aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida imiy adabiyotlarni tahlil qilish va qiyosiy taqqoslash metodlaridan keng foydalanildi. Turli mualliflarning art-pedagogik yondashuvga oid qarashlari o‘zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Bu metod art-pedagogikaning tarbiya darslarini tashkil etishdagi o‘rni nazariy jihatdan asoslash imkonini berdi. 7- umumta’lim maktabi 9- sinf

o’quvchilari bilan interaktiv art-pedagogik usullardan foydalanib tarbiya darslari tashkil etildi dars jarayonida “ Storytelling” metodi qo‘llandi ya’ni bu metod hikoya orqali o’quvchilarga hikoyalar orqali tarbiya darsini samaradorligi oshirildi.

Tadqiqotda, shuningdek, pedagogik tajriba-sinov elementlaridan foydalanildi. Tajriba jarayonida tarbiya darslari art-pedagogik yondashuv asosida rejalashtirilib, an’anaviy mashg‘ulotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bu orqali art-pedagogik metodlarning tarbiyaviy samaradorligini aniqlashga harakat qilindi. Art-pedagogik usullar yordamida tarbiya darslarini samarali tashkil etish ilmiy mavzu bo‘yicha Guliston shahar 7- sonli umumta’lim maktabida 9-sinflar bilan tadqiqot ishlarini olib bordim.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida art-pedagogik yondasuv asosida tashkil etilgan tarbiya darslarining samaradorligi bir necha pedagogik ko‘rsatkichlar asosida aniqlandi. Xususan, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, muloqotga kirishish darjasi, emotsional holati hamda axloqiy qadriyatlarni anglash ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar art-pedagogik metodlarning tarbiya jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.Kuzatuv natijalariga ko‘ra, kollaj tuzish, rolli o‘yinlar va dramatizatsiya asosida tashkil etilgan tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning faol ishtiroki sezilarli darajada oshgan. Avvalgi an’anaviy mashg‘ulotlarda faqat ayrim o‘quvchilar dars jarayonida faol qatnashgan bo‘lsa, art-pedagogik usullar qo’llanilgan darslarda aksariyat o‘quvchilar o‘z fikrini bildirishga harakat qilgani kuzatildi. Bu holat o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortganidan dalolat beradi. Shuningdek, art-pedagogik mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning emotsional holatida ijobiy o‘zgarishlar qayt etildi. Tasviriy faoliyat va ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini erkin ifodalash imkoniga ega bo‘ladilar. Natijada dars jarayonida emotsional zo‘riqish kamayib, qulay psixologik muhit shakllanadi. Bu holatda tarbiya darslarining samarali tashkil etilishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarining rivojlanganligini ham ko‘rsatadi. Guruhda bajariladigan art-pedagogik topshiriqlar jarayonida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qilish, bir-birining fikrini tinglash va umumiy xulosaga kelish malakalarini namoyon etadilar. Bu esa tarbiya darslarida jamoaviylik va hamjihatlikni shakllantirishda art-pedagogikaning samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Axloqiy tarbiya nuqtayi nazaridan ham ijobiy natijalar kuzatildi. Art-pedagogik yondashuv asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar axloqiy tushunchalarni tayyor shaklda qabul qilishdan ko‘ra, ularni ijodiy faoliyat orqali anglashga harakar qildilar. Masalan, rolli o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarni sahnalastirib, muayyan xatti-harakatlarning oqibatlarini mustaqil ravishta baholadilar. Bu holat axloqiy qadriyatlarning ongli ravishta shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida art-pedagogik usullar qo‘llanilgan tarbiya darslarida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi barqaror ravishta saqlanib qolishi aniqlandi. Dars jarayonida passiv va befarqlik holati deyarli kuzatilmadi. O‘quvchilarning mashg‘ulotlarga tayyorgarlik bilan kelishi va ijodiy topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi tarbiya jarayonining samaradorligi oshganidan dalolat beradi. Umuman olganda, olingan natijalar art-pedagogik yondashuv tarbiya darslarini tashkil etishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning shaxsiy faolligi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy

moslashuvi hamda axloqiy qarashlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijalar art-pedagogik usullarni tarbiya darslarida tizimli va maqsadga muvofiq qo‘llash zarurligini asoslab berdi.

1- jadval.

Art-pedagogik mashg‘ulotlarni tahlili.

Ko‘rsatkich	**Mashg‘ulotdan oldin**	**Mashg‘ulotdan keyin**	**O‘sish/izoh**
Emotsional barqarorlik	**50%**	**78%**	**+28%**
Ijtimoiy moslashuv	**55%**	**80%**	**+25%**
O‘zini ifodalash qobiliyati	**52%**	**76%**	**+24%**
Ijodiy faollik	**48%**	**75%**	**+27%**
O‘ziga bo‘lgan ishonch	**50%**	**77%**	**+27%**

Ko‘rsatkich	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
Emotsional barqarorlik	Erkin boshqaradi	Ba’zan boshqaradi	Qiyinchilik bor	Juda beqaror	Ishtirok etmaydi
Ijtimoiy moslashuv	Faol hamkor	Ba’zan faol	O‘rtacha	Kam	Yo‘q
O‘zini ifodalash	Erkin va ijodiy	Ba’zan ijodiy	Ba’zan ifoda	Kam	Yo‘q
Ijodiy faollik	Innovatsion yechim	Ijodiy	O‘rtacha	Kam	Yo‘q

O‘ziga bo‘lgan ishonch	Yuqori motivatsiya	Ba’zan	O‘rtacha	Past	Yo‘q

2-jadval. Art-pedagogik mashg‘ulotlarni baholash tizimi

Natija: 27 nafar o‘quvchi bo‘yicha baholash ko‘rsatkichlari yuqori ball bilan yakunlandi, bu art-pedagogik mashg‘ulotlar samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari art-pedagogik yondashuvning tarbiya darslarini tashkil etish jarayonidagi muhim pedagogik imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, san’at elementlariga asoslangan tarbiya mashg‘ulotlari o’quvchilarning faqat bilim darajasiga, balki ularning shaxsiy, emotsionalva ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat tarbiya darslarining mazmunini yangilash zarurati haqidagi pedagogik qarashlar bilan mos keladi. Muhokama jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, art-pedagogik metodlar o‘quvchilarni tarbiya jaryonining markaziga olib chiqadi. An’anaviy tarbiya darslarida o’quvchi ko‘pincha passiv tinglovchi rolida bo‘lsa, san’atga asoslangan faoliyatlarda u faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa tarbiyaviy ta’sirning kuchayishiga olib keladi. O‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifodalashi, ijodiy faoliyat orqali axloqiy tushunchalarni anglashga intilishi tarbiya jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalarining tahlili, shuni ko‘rsatadiki art-pedagogika tarbiya darslarida emotsional muhitni sog‘lomlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Ijodiy faoliyat jarayonida o‘quvchilar o‘z hissiyotini ochiq namoyon etish inkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa psixologik zo‘riqishni kamaytiradi. Natijada dars jarayonida o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan muhit shakllanadi. Bunday muhit darsda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, art-pedagogik yondashun axloqiy tarbiya jarayonida ham yuqori samaradorlikka ega. O‘quvchilar axloqiy me’yorlarni tayyor qoida sifatida emas, balki real hayotiy vaziyatlar orqali idrok etadilar. Rolli o‘yinlar va daramatizatsiya jarayonida muayyan xatti-harakatlarning oqibatlarini tahlil qilish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Bu esa axloqiy qadriyatlarning ongli ravishda shakllanishiga xizmat qiladi.

Xolosa qilib aytganda, muhokama natijalari art-pedagogikaning tarbiya darslarini tashkil etishda muhim metodik va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, o’quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash ha mda tarbiya darslarini zamonaviy pedagogik asosida tshkil etishga xizmat qiladi. Shu bois art-pedagogik metodlardan tarbiya darslarida keng va tizimli foydalanish ilmiy pedagogik jihatdan maqsadga muvafiq deb hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari tarbiya darslarini tashkil etishda art-pedagogik yondashuvdan foydalanish pedagogik jihatdan muhim va samarali ekanini ko’rsatadi. O‘tkazulgan tahlillarart-pedagogik metodlar tarbiya jarayonining

mazmunini boyitibgina qilamay, balki o’quvchilarning shaxsiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy rivojlanishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, san’at elementlari asosida tshkil etilgan tarbiya mashg‘ulotlari o’quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning o’z fikrini bayon etishi, jamoa bilan hamkorlik qilish va axloqiy qadriyatlarni ongli ravishta anglash ko’nikmalarini rivojlantiradi. Tarbiya darslarini san’at orqali o‘qitish o‘quvchilarning estetik didini ham shakllantirishga yordam beradi. Art-pedagogik yondashuv tarbiya darslarida qulay psixologik muhit yaratib, o’quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva M. Pedagogik texnologiyalar va tarbiya jarayoni. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 156 b.
2. Ishmuhamedov R. Art-pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 184 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
4. Qodirov A. Shaxs tarbiyasida interaktiv metodlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – 142 b.
5. Saidov H. Zamonaviy ta’limda tarbiya masalalari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 168 b.
6. Sharipov Sh., Musurmonova O. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 320 b.
7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 260 b.
8. Xolmatova N. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 150 b.Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 1983.